O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ANDIJON VILOYATI ANDIJON SHAHAR HOKIMINING
QARORI

710000 Andijon shahri Ergash Ashurov ko’chasi 17-uy. Tel: (74) 228-31-35

2023 - yil 15 - sentabr 182-1-29-Q/23 Andijon shahar hokimligi

Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘shimcha guruh ochish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasiningg 2019-yil 13-maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martadagi 132-sonli “Bolalarni boshlang‘ich majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahaliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 25- moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023-yil 25-avgustdagi 06/776–sonli aloqa xati inobatga olinsin.
2. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 49-umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 ta ish xajmi 10.5 soatlik,

52-umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 ta ish xajmi 9 soatlik, 19- va 62-umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida 1 ta 1yillik majburiy ta’lim guruxlari tashkil etilsin.

3. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (X.Xalmatov)ga:

- Yangi tashkil etilgan guruhlarning moddiy texnika bazasi va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (X.Xalmatov), Tibbiyot birlashmasi (M.Mirzaaxmedova), Sanitariya epdidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (Q.Tojidinov), Andijon shahar moliya bo‘limi bilan birgalikda tashkil etilayotgan guruhlarni belgilangan sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinishi yuzasidan bir hafta muddatda o‘rganib chiqib, aniqlangan kamchiliklar va holatlar bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlari bilan hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rishsin.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar xokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin

Andijon shahar hokimi **G.Abduraxmanov**